



ARAB TILIDA SHART MAYLI SHAKLINING YASALISH MASALASI

Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi

Alfraganus university

Sharq tillari kafedra o'qituvchisi

Arab tilida shartli ravishda nomlangan “Shart mayli” aslida mazkur maylning harakterini to'liq ochib bera olmaydi, chunki bu mayldagi fe'l faqat shartni bildirmaydi. Balki boshqa bir qator ma'nolarni ham ifodalashi bilan o'zbek tilidagi shart maylidan farq qiladi. Shart maylida kelgan fe'lni to'gridan to'gri tarjima qila olmaymiz. Tarjima qilish uchun shart maylida turgan fe'ldan oldin shart mayli yuklamalari kelishi lozim. Shart maylini hosil qilish uchun biz aniqlik maylidan foydalanamiz.

Aniqlik mayli bu ish-harakatning mavjud zamonlardan biriga munosabatini bildiruvchi mayldir va u har doim fe'lning hozirgi- kelasi zamon shaklida ifodalanadi. Demak, shart mayli fe'lning hozirgi kelasi zamon shaklidan yasaladi va o'zining ayrim qoidalariga ega. Quyida shart maylining yasalishi hamda shart mayli yuklamalarining vazifalari keltirilgan:

1-qoida. Shart mayli fe'llarining hozirgi kelasi zamon shaklidan yasalishini quyida ta'kidlab o'tdik. Buning uchun hozirgi- kelasi zamondagi fe'lning oxirgi harakati sukunga o'zgartiriladi. Misol uchun: يَكْتُبُ- يُكْتُبُ

2-qoida. Hozirgi-kelasi zamondagi fe'llarining quyidagi shakllarida ھ harfi tushib qoladi.

1. 2-shaxs, birlik, muannas تَفْهَمِي
2. 2-shaxs, ikkilik, muzakkar-muannas تَفْهَمَا
3. 3-shaxs, ikkilik, muzakkar يَفْهَمَا
4. 3-shaxs, ikkilik, muannas تَفْهَمَا

3-qoida. Hozirgi-kelasi zamondagi fe'llarining quyidagi shakllarida ن harfi tushib qoladi va o'rniga o'qilmaydigan ا (alif) orttiriladi.

1. 2-shaxs, ko'plik, muzakkar تَفْهَمُوا
2. 3-shaxs, ko'plik, muzakkar يَفْهَمُوا

4-qoida. Hozirgi-kelasi zamondagi fe'llarining quyidagi shakli shart maylida o'zgarmaydi.

1. 2-shaxs, ko'plik, muannas تَفْهَمْنَ
2. 3-shaxs, ko'plik, muannas يَفْهَمْنَ

Quyida biz shart maylining qanday hosil bo'lishini ko'rib chiqdik. Shart maylida turgan fe'lning o'zini to'gridan-to'gri tarjima qilolmaymiz. Tarjima qilishimiz uchun shart maylida turgan fe'lning oldida shart mayli yuklamalari bo'lishi kerak.

Shartni anglatadigan bu so'zlardan keyin shart ergash gapning va bosh gapning kesimlari yuqorida berilgan misollardagi kabi jazm holatidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Bunda kesimlarning biri jazm holatida, ikkinchisi esa shart mayli yuklamasining ishlatilinishiga ko'ra yo hozirgi-kelasi zamonda yo o'tgan zamon shaklida bo'ladi. Shart mayli yuklamalari — اِنْ، مَتَى، مَن، لِمَ، لِي، لَا، اَمْ —



Ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. *مَنْ مَتَى، إن*, shart yuklamalari umumiy xususiyatga ega, ya'ni ushbu yuklamalardan keyin 2 ta shart maylidagi fe'l kelishi kerak bo'ladi..

إن تُكْرَمَنْ يَأْكُرْكَ *Meni hurmat qilsang, seni hurmat qilaman.*

يَجِدُ مَنْ يَطْلُبُ *Kim istasa (qidirsa) topadi.*

مَتَى يَسْمَعُ يَفْهَمُ *Qachonki eshitsa, tushunadi.*

2. *لَمْ* shart mayli yuklamasidan keyin kelgan fe'l umuman bajarilmagan ish harakatni ifoda etadi hamda mazmuni shartni ifodalamaydi. Buning mazmuni o'tgan zamonga ishora qiladigan qat'iy inkorni ifodalaydi. Ya'ni, shakli shart maylida turadi, mazmuni esa o'tgan-zamondagi qat'iy inkor. Bu yuklamadan keyin shart maylidagi bitta fe'l keladi. Gapda "umuman", "mutlaqo", "also", "hech ham" degan tarjima ko'proq mos tushadi.

لَمْ يَأْكُلْ *Mutlaqo yemadi.*

لَمْ أَذْهَبْ *Hech bormadi.*

3. *لَا* shart yuklamasi ham umuman shart mazmunini ifodalamaydi balki buyruq mayli shaklini ifodalash uchun ishlatiladi.

Ya'ni, shakli shart maylida kelishini talab qilsa, mazmuni buyruq-inkorni anglatadi.

لَا تَفْعَلْ هَكَذَا! *Bunday qilma!*

لَا تَتَكَلَّمُوقْتَ الدَّرْسَ *Dars paytida gaplashma!*

Ana endi, shart maylining Qur'oni Karimda ishlatilinishini ko'rib chiqamiz. Shart mayli yuklamalari Qur'oni Karimda juda ko'p o'rinlarda ishlatilingan. Bundan tashqari Qur'oni Karimda *لَوْ*, *كَيْفَمَا*, *حَيْثُمَا*, *إِذَا*, *لَوْ* kabi shart mayli yuklamalarini

uchratishingiz mumkin. *مَتَى، إن*, shart mayli yuklamalarining Qur'on Karimda ishlatilinishini oyatlarda ko'rib o'tamiz.

1. Baqara surasi 85-oyat

يَأْتُوَكُمْ أَسْرَى تَقْدُوهُمْ وَهُوَ وَإِنْ

"Agar ular asir bo'lsalar, (tovon to'lab) qutqarib olasiz".

Baqara surasining 85-oyatida *إِنْ* (agar) shart mayli yuklamasining ishlatilinishini ko'rish mumkin. Bu yuklamaning asosiy qoidasi, o'zidan keyin 2 ta shart maylidagi fe'lni talab qiladi. Bu oyatda ham ko'rish mumkinki, *يَأْتُوَكُمْ* *يَأْتُوا* ya'ni shart maylining 3-shaxs, ko'plik, muzakkar shakli qo'llanilmoqda hamda *تَقْدُوهُمْ* *تَقْدُوا* fe'li ya'ni shart maylining 2-shaxs, ko'plik, muzakkar shakli qo'llanilmoqda. Shart ergash gapning va bosh gapning kesimlarini jazm holatda kelayotganini ko'rish mumkin.

2. Baqara surasi 197-oyat

وَمَا تَفْعَلُوا مِنْ خَيْرٍ يَعْلَمْهُ اللَّهُ. "Nima yaxshilik qilsangiz, Alloh uni biladi"

Baqara surasining 197-oyatida *مَا* shart mayli yuklamasi ishlatilingan. Bu yuklamaning o'ziga xos qoidasi shundaki, o'zidan keyin faqat bitta shart maylidagi fe'lni talab qiladi. Bu oyatda *تَفْعَلُوا* shart maylidagi fe'l kelmoqda. Bu fe'l 2-shaxs, ko'plik, muzakkar shaklda turibdi. Ya'ni, nimaiki yaxshilik qilsangiz degan ma'noni bildiradi. Demak, *مَا* shart mayli

yuklamasi tarjimada nimaiki degan ma'noni beradi.



3. Niso surasi 123-oyat

مَنْ يَعْمَلْ سُوءًا يُجْزَ بِهِ

“Kim yomonlik qilsa, uning jazosini tortadir”

shart mayli yuklamasining Qur'oni Karimda ishlatilinishini ushbu oyatda ko'rish mumkin. O'zidan keyin bevosita shart maylidagi fe'l ishlatilingan. يَعْمَلُ³-shaxs, muzakkar, birlik shaklda.

4. Ixlos surasi 3–4-oyat

لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ

“U tug'magan va tug'ilmagan”, “Va unga hech kim teng bo'lmagan”

Ixlos surasining uchinchi va to'rtinchi oyatlarida shart mayli yuklamasining ishlatilinishini ko'rish mumkin. Bu yuklama shakl jihatdan o'zidan keyin shart mayli fe'lini talab qilsa, mazmun jihatdan o'tgan zamon qat'iy inkor ma'nosini bildiradi.

Yuklamasi grammatik jihatdan qoidasiga binoan o'zidan keying bitta fe'lni shart maylida turishini talab qiladi Ixlos surasining 3-oyatida shart mayli yuklamalaridan so'ng³ يَلِدْ va يُولَدْ³-shaxs, birlik, muzakkar shaklidagi shart mayli fe'li qo'llanilmoqda. 4-oyatda esa يَكُنْ³-shaxs, birlik, muzakkar shaklidagi shart mayli yuklamasi kelyapti. Bu oyatning tarjimasini umuman yoki also tug'magan va also tug'ilmagan va unga hech kim teng bo'lmagan deb olsak ham bo'ladi. Ayni tarjimada yuklamasini umuman, also, hech kabi so'zlar chiqarib beradi. Alloh taolaga biror zot na zotida, na sifatida va na amalida teng bo'lgan emas,

bo'lolmaydi ham.

Shart maylining qo'llanilishini Qur'oni Karimning ko'pgina oyatlarida ko'rishimiz mumkin. Quyida faqat ba'zi misollar keltirildi. Agar chuqur yondashilnadigan bo'lsa, shart ergashgan gapning turli o'rinlarda turlicha ishlatilinishiga guvoh bo'lishingiz mumkin.

Ikkilangan fe'llarning shart mayli ikki hil usulda yasaladi:

1. Aniq daraja formasidagi oxirgi qisqa unlini tushirib qoldirish. Bunda oxirgi ikkita undosh yonma-yon kelib qoladi. Bundan qochish uchun oxirgi undoshga *a* yoki *i* unlisi, bordiyu fe'l o'rta o'zagining harakati *u* bo'lsa, *a*, *i*, *u* unlilari qo'yiladi. Masalan: فَرَّ - يَفِرُّ - يَفَرُّ - يَفِرُّ

2. Tog'ri fe'llardagi kabi yasash mumkin: يَدُلُّ

Ammo oxiri ان ، ين ، ون qo'shimchalariga tugaydigan hollarda birinchi usul bilan yasaladi, ya'ni ن qushimchalari tushib qoladi.

Shahs	Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
I	M.z. M.n	أَدُلُّ	-	نَدُلُّ
II	M.z. M.n.	تَدُلُّ تَدُلِي	تَدُلَّا	تَدُلُّنَ تَدُلُوا



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



III	M.z.	يدلل تدلل	يدلا تدلا	يدللن يدلوا
	M.n.			

Ikilangan fe'llarning buyruq mayli ularning shart mayli formasidan umumiy qoida asosida yasaladi.

Masalan:

تَفَرَّرَ - فَرَرَّ فُرِرَ - فَرَرَّ

Ikkilangan fe'llarning istak maylida oxirgi o'zak undoshi fathalanadi.

Masalan:

يَمَسُّ - يَمَسُّ
يَفِرُّ - يَفِرُّ

Birinchi o'zak harfi illatli و yoki ي bo'lgan fen'llar tog'riga o'hshash fe'llar deyiladi. Tog'riga o'hshash fe'llarning aksariyati و harfi bilan boshlanadi. Ular hozirgi-kelasi zamonda tuslanganda o'rta o'zagi *kasra* yoki *fatha* bo'lsa, و harfi tushib qoladi:

وَقَعَ - يَقَعُ

Birinchi o'zak harfi ي bo'lgan fe'llarda bu hodisa ro'y bermaydi. Ular tog'ri fe'llar kabi tuslanadi:

يَسِرُ - يَسِرُ

Tog'riga o'hshash fe'llar o'tgan zamonda huddi tog'ri fe'llarga o'hshab tuslanadi. O'ziri-kelasi zamonda esa quyidagicha tuslanadi:

وَصَلَ - يَصِلُ

Tog'riga o'hshash fe'llarning majhul darajasi quyidagichadir:

وَصَلَ - يُوصَلُ - يُوصَلُ

Tog'riga o'hshash fe'llar mayllarda quyidagicha bo'ladi:

Shart mayli: لَمْ يَجِدْ

Buyruq mayli: جِدْ

Istak mayli: لَنْ تَجِدَ

va وَاوْفَرُ fe'lining buyruq maylidagi shakllari

مفرد	مثنى	جمع	مفرد	مثنى	جمع
دَعَا	دَعَا	دَعَا	أَوْفَرَا	أَوْفَرَا	أَوْفَرُوا
دَعِيَ	دَعَنَ	دَعَنَ	أَوْفَرِي	أَوْفَرِي	أَوْفَرَنَ

Tog'riga o'hshash fe'llarning brinchi bob masdarlari (عِلَّة) qolipidan yasaladi:

وَهَبَ - هَبَ وَصَفَ - صَفَ

Makon va zamon nomlari esa (مَفْعِل) qolipida yasaladi:

مَوْعِدٌ

Mehnat qurollari nomlari esa (مِفْعَال) qolipida yasaladi:

وَزَنَ - مِيزَانٌ



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Tog'riga o'hshash fe'llarning 2, 3, 5, va 6 boblari huddi tog'ri fe'llar kabi tuslanadi. 7-bob kam uchraydi. Uchraganda tog'ri fe'llar kabi tuslanadi.

8-bobda illatli o'zak qolipdagi ت harfi bilan assimilyatsiyaga kirishadi:

وَحَدَّ - اتَّحَدَّ

Tog'riga o'hshash fe'llarning hosila boblari

Uzun unli tovush oxirgi yopiq bog'inda qisqa unli tovushga aylanadi. Bu fonetik qonunga binoan bo'sh fe'llarning shart mayli quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

يَقُولُ - يَقُولُ - يَقُولُ

يَسِيرُ - يَسِيرُ - يَسِيرُ

Agar uchinchi o'zak ochiq bog'inni tashkil etsa, illatli undosh saqlanadi:

يَقُولُ - قُلْ - يَخْفَ - خَفَ - يَسِيرُ - سِرَ

Fe'llarning istak mayli yasalayotganda ularning uchinchi o'zak undoshi fathalanar edi. Noqis fe'llarda ham shu qoidaga amal qilinadi va ba'zi o'zgarishlar ro'y beradi.

Masalan:

رَمَى - يَرْمِي - يَرْمِي

دَعَا - يَدْعُو - يَدْعُو

نَسِيَ - يَنْسِي - يَنْسِي

Noqis fe'llardan shart mayli yasalayotganda ularning oxiridagi ا، ي، و uzun unlilari o'zlariga mos qisqa unliga o'zgaradi.

Masalan:

رَمَى - يَرْمِي - يَرْمِي

دَعَا - يَدْعُو - يَدْعُو

نَسِيَ - يَنْسِي - يَنْسِي

Buyruq mayli esa shart maylidan yasaladi. So'z boshida ikki undoshning yonma-yon kelishini yog'otish maqsadida *hamzali alif* orttiriladi.

Masalan:

إِزْمَ أَدْعُ إِنْسَ

Fe'ning oxiri sukunli (jazzm) bo'lishini talab qiladigan yuklamalar ikki qismga bo'linadi:

1. Shart ma'nosini qo'yadigan va o'zidan keyingi ikkita fe'lni sukunli bo'lishini talab qiladigan yuklamalar. Bularga مَتَى، مَهْمَا، إِنْ kabi yuklamalar kiradi.

Masalan:

إِنْ تَدْرُسْ تَعْلَمَ - Agar oqisang bilasan.

مَتَى تَذْهَبُ أَذْهَبُ - Qachon ketsang ketaman.

2. Shart ma'nosini bermasdan, o'zidan keyingi bitta fe'lni shart mayliga qo'yadigan yuklamalar. Bularga لَمْ، لَمْ yuklamalari kiradi.

Masalan:

لَمْ يَكْتُبْ مُحَمَّدٌ

- Muhammad yozmadi.

لَيَذْهَبُ زَيْدٌ إِلَى الْمَدْرَسَةِ

- Zayd maktabga borsin.



⁶²Bosh gapdagi ish-harakatning amalga oshish shartini bildiruvchi ergash gap *shart ergash gap* deyiladi. Arab tilida ko‘pincha shart ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

Bosh gapdagi ish-harakatning amalga oshish sharti real (“yahshi oqisang tushunasan,” kabi) va noreal («yahshi og‘iganingda edi, tushunarding») kabi bo‘lishi mumkin.

1. Real shartni bildiruvchi shart ergash gap oldidan من ، إذا ، إن ، متى ، kabi yuklamalardan biri kelishi mumkin. إن ، متى ، من yuklamalari ishtirok etganida, ergash gapdagi fe‘l ham, bosh gapdagi fe‘l ham, yoki o‘tgan zamonda, yoki shart maylida keladi. Lekin bu gapdan anglashilgan shart ma‘nosi hozirgi yoki kelasi zamonga tegishli bo‘ladi.

Masalan:

إن خرجت من الغرفة خرجت منها - *Agar sen honadan chiqsang men ham chiqaman.*

إن تسألوا كثيرا تعلموا كثيرا - *Ko‘p so‘rasanglar ko‘p bilasizlar.*

متى تخرج أخرج - *Qachon chiqsan men ham chiqaman.*

من حفر حفرة وقع فيه - *Kimki birovga cho‘qazisa o‘zi yiqiladi.*

2. إذا yuklamasi ishlatilganda, har ikki gapdagi fe‘l o‘tgan zamon shaklida keladi. Lekin shartning ma‘nosi hozirgi yoki kelasi zamonga tegishliligicha qoladi.

Masalan:

إذا دخلت الغرفة رأيت القنديل فيها - *Sen honaga kirsang, undagi qandilni ko‘lasan.*

3. Ba‘zan bosh gapning mazmuniga ko‘proq e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, bosh gap ergash gapdan oldin kelishi mumkin. Masalan:

لست مبالغا ، إذا قلت أنني مريض - *Agar men kasalman desam, mubolaqa qilmagan bo‘laman.*

Quyidagi hollarda bosh gap oldidan yuklamasi qo‘yiladi.

1. Bosh gap ot kesimli gapdan iborat bo‘lsa, masalan:

إن لم تر هذه الكارثة فأنت سعيد - *Agar sen bu falokatni ko‘rmagan bo‘lsang, bahtlisan.*

2. Bosh gapdagi fe‘ldan buyruq iltimos, hohish-istak ma‘nolari anglashilsa, masalan:

- إذا لم يعيش حرا بموطنه الفتى ميتا و موطنه قبرا قسم الفت

Agar inson o‘z vatanida erkin yashamasa, uni o‘lik, vatanini qabr hisobla.

3. Bosh gapdagi قد ، سوف ، س kabi yuklamalar bilan, shuningdek ما yoki لن inkor yuklamalar bilan boshlangan bo‘lsa:

إن تستغفر لهم قلن يغفر الله لهم - *Agar sen ular uchun kechirim so‘lasan, olloh ularni hech qachon kechirmaydi.*

Noreal shartni bildiruvchi shart ergash gap oldidan لو yuklamasi qo‘yiladi va bu gapdagi fe‘l ko‘pincha o‘tgan zamon shaklida keladi.

Masalan:

لو زرنا المسرح شاهدنا فيه تمثيلية رائعة

Agar teatrga borganimizda, edi unda ajoyib spektakl tomosha qilgan bo‘lardik.

Bunday gaplarda bosh gap oldin ئۇلار‘kid yuklamasi qo‘yilishi mumkin. Bu yuklama gapning ma‘nosiga ta‘sir o‘tkazmaydi.

⁶² Talabov E, «Arab tili» T. O‘zbekiston 1993 yil.



Masalan:

لو كان عندي وقت لكتبت مقالة لجريدة الحائط

Vaqtim bo 'lganida edi, devoriy gazetaqa maqola yozgan bo 'lardim.

Ba'zan noreal shartni ifodalashda bosh gap birikma olmoshi bilan ʻy yuklamasidan iborat bo'lishi ham mumkin. Masalan:

لولاہ لکنت نعسا - *Agar u bo 'lmaganda edi, men bahtsiz bo 'lgan bo 'lar edim.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

19. Иброҳимов Н., Орипов А., Икромжонов А., Зайриев А. “ал-Қомус” арабча-ўзбекча қомусий луғат. 4 жилдли. – Т., 2017-2019. –650 б.
20. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Т., 1997. –453б.
21. Қиличев Э. 1992. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси (грамматика). Ўқув қўлланма. Тошкент: Ўқитувчи. –218 б.
22. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Т.:Ўқитувчи, 1995. –852б.
23. Мирзаев М. Усмонов С, Расулов И. Ўзбек тили грамматикаси. Т.: 1970. –148 б.
24. Носиров О., Юсупов М. ва бошқалар. “ан-Наъим” арабча-ўзбекча луғат. – Т., 2003. –513 б.
25. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Т., 1981. –654 б.